

SOG'LOM MUHIT - SOG'LOM JAMOA

Zakirova Zulfiya Turayevna

Sirdaryo viloyati Guliston tumani MMTB ga qarashli

33-sonli UO'TM amaliyotchi psixologi,

Islomjon Abduraximov

Termiz DU V bosqich talabasi

malakaviy amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ta'lim muassasalarida sog'lom muhitni yaratish o'qituvchi hamda o'quvchilarning ruhiy va hissiy holatini ta'minlashda hal qiluvchi o'rin tutadi. Sog'lom muhit akademik, ijtimoiy yoki shaxsiy muammolarga duch kelgan ta'lim-tarbiya beruvchi va ta'lim-tarbiya oluvchilarga yordam beradi, ularga ta'lim yo'llaridagi murakkabliklarni yengib o'tishga va o'zlarining to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Ushbu maqola ta'lim muassasalarida sog'lom muhitni yaratish, uning afzalliklari va ta'lim-tarbiya beruvchi hamda ta'lim-tarbiya oluvchilarning hayotiy natijalarini ijobiy tomonga o'zgarishiga ko'mak beradi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, ta'lim sifatini oshirish omillari, sog'lom muhit, sog'lom jamoa, faoliyatlarni rejalashtirish, ta'lim sifati, ta'lim muassasasini rivojlantirish ko'lam.

Mamlakatimizda demokratik prinsiplar ustuvor bo'lgan yangi jamiyat qurish, bozor munosabatlariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga ega davlat barpo etishga yo'naltirilgan bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida xalq ta'limi tizimidagi eng muhim vazifalardan biri ta'lim sifati va mazmunini yangi bosqichga ko'tarishdan iborat. Bu vazifa samarali amalga oshirilsa, mamlakatimizni modernizasiya borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim hal qiluvchi kuch hisoblangan ma'naviy jihatdan barkamol, axloqan pok, mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlod tarbiyalanadi. Albatta, bu bejiz emas. Chunki «o'zbek modeli» ning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan "Ta'lim to'g'risida" gi qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da, avvalo, inson

manfaatlari ustuvorligi, uning zamon talablariga mos holda ortib boradigan ehtiyoj va qiziqishlari, imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish belgilab qo'yilgan.

Bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini oshirish maqsadida Xalq ta'limi vazirligi tomonidan bir qator pedagogik innovasiyalar (“Dars - muqaddas”, “O'rgan-o'rgat”, “Bilimlar bellashuvi”, “Murakkab fan – o'rganaman” va boshqalar) ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi va u o'z samarasini berdi. Hozirgi kunda 2024-yil 21- iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi PQ-231-son qarori qabul qilindi. Unga ko'ra 2025-yil 1-yanvardan boshlab pedagog va mutaxassis kadrlar kasbiy rivojlanishining uzluksizligini ta'minlash maqsadida barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarida malaka oshirishning “Kasbiy rivojlanish soati”, tayanch umumiy o'rta ta'lim muassasalarida esa “Kasbiy rivojlantirish kuni” kabi shakllari bosqichma-bosqich joriy etildi. Bunda “Kasbiy rivojlanish soati” va “Kasbiy rivojlanish kuni” tadbirlarini tashkil etish uchun har bir tuman (shahar) da yuqori malakali pedagoglar hamda psixologlar tanlab olinib, kabi kompetensiyasi yuqori trenerlar shakllantirildi. “Kasbiy rivojlanish soati” doirasida tuman (hudud) metodist psixologlari tomonidan psixologlarning kasbiy faoliyati tahlil qilinadi, ularga metodik yordam ko'rsatiladi, kasbiy rivojlanishi bo'yicha tavsiyalar beradi. “Kasbiy rivojlanish kuni” doirasida har bitta tuman (hudud) dan tayanch umumiy o'rta ta'lim muassasalari tanlanadi va ushbu muassasalarda fan o'qituvchilari hamda psixologlar uchun kasbiy rivojlantirish bo'yicha o'quv mashg'ulotlari o'tkazilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi MMTV hamda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi va metodist amaliyotchi psixologlar uchun alohida tayyorlov kurslari tashkil etildi. Ushbu tayyorlov kurslarini tamomlagan shahar (hudud) lardagi MMTB vakillari, metodist psixologlar tuman (hudud) laridagi umumta'lim maktablari fan o'qituvchilari, amaliyotchi psixologlar uchun alohida tayyorlov kurslari tashkil

etdilar. Fanlar kesimida haftaning ma'lum bir kuni umumta'lim maktabi fan o'qituvchilari va amaliyotchi psixologlarini "Kasbiy rivojlanish kunlari" sifatida belgilandi. Maktabgacha va maktab ta'limi psixolog mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ham ishlab chiqildi va faoliyat olib bormoqda.

Umumta'lim maktablarida tayanch maktablari tashkil etish to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 577-son qarorlari va Respublika tashxis markazining 2022-yil 26-avgust 40-sonli buyruqlarini ijrosini ta'minlash maqsadida har bir hududning MMTB boshlig'ining buyrug'i ishlab chiqildi. Unga ko'ra 1.Ta'lim tizimidagi amaliyotchi psixologlarni bilimlarini oshirish ularga metodik yordamlar ko'rsatish tizimidagi muammolarga yechim topish va ishlarni samarali tashkil etish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-dekabrdagi 792-son, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 577-son qarorlari va Respublika tashxis markazining 2022-yil 26-avgust 40-sonli buyrug'i ma'lumot va ijro uchun qabul qilindi:

- tuman sektorlaridan bittadan na'munali maktablar umumiy o'rta ta'lim maktablari tayanch maktabi etib belgilab olinsin
- ta'lim muassasalarida o'quv tarbiya jarayonlarini ijtimoiy psixologik qo'llab quvvatlash maqsadida metodik kun tashkil etilsin

Tayanch maktab deb topilgan maktab amaliyotchi psixologlari ishtirokida mobil guruh tashkil qilindi va maktab psixologlariga amaliy yordam berish ishlari yo'lga qo'yildi. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilish psixolog-metodist zimmasiga yuklatildi. Mazkur innovasiyalarning samara berishi hamda ta'lim-tarbiya sifatini oshirishga xizmat qilishida eng avvalo ularning mazmun-mohiyati har bir pedagogik jamoalarda o'rganildi va har bir o'qituvchi, maktab rahbarlari tomonidan amaliyotga samarali joriy etilishi ta'minlandi, eng muhimi esa maktablarda sog'lom muhitning yaratilishiga olib kelindi. Shuni aytish mumkinki, bilimli va intellektual rivojlangan barkamol avlod sog'lom muhit mavjud bo'lgan sog'lom jamoada tarbiyalanadi.

Shundan kelib chiqqan holda amaliyotga joriy etilgan innovatsiyalarning mantiqiy davomi sifatida ta'lim muassasalarida sog'lom muhitni shakllantirishga qaratilgan "SOG'LOM MUHIT - SOG'LOM JAMOA" deb nomlangan tadbirlar majmuasini muntazam amaliyotga tatbiq etishni tavsiya etamiz.

Yuqoridagilardan "Sog'lom muhit nima va uni shakllantirish kimlarga va nimalarga bog'liq?" degan savol tug'iladi. SOG'LOM MUHIT bu – ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari o'rtasida o'zaro samimiy hurmat, ta'lim-tarbiya sifatini oshirish uchun birgalikda faoliyat ko'rsatayotgan ahil jamoa, jamoadagi har bir shaxsning qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va rivojlantirish uchun yaratilgan sharoit, do'stona, iliq va ishchan muhit. Shundan kelib chiqqan holda, sog'lom muhitni shakllantirish quyidagi omillarga bog'liq:

- Maktab rahbariyatining adolatli yondashuvi va samarali boshqaruvi;
- Jamoa o'rtasidagi samimiy munosabat;
- Maktab rahbariyati, o'qituvchi, o'quvchining ahil bo'lib umumiy maqsad (ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish) sari intilishi;
- Sog'lom raqobatning mavjudligi;
- Shaxsning intellektual salohiyatini namoyon etishga imkoniyat va sharoitlarning yaratilganligi;
- Natijaga ko'ra rag'batlantirishning yo'lga qo'yilganligi;
- Samarali natijaga olib keluvchi o'zaro hamkorlikning mavjudligi;
- O'quv-tarbiya jarayonini ishtirokchilari (o'quvchilar) ning shaxsiy qobiliyatlari, o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini hurmat qilinishi;
- Keng jamoatchilik bilan samarali hamkorlikning yo'lga qo'yilganligi;
- Oila-mahalla-maktab hamkorligi doirasida haftalik va dekadalar tashkil etish;

- Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va o'quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb qilish bo'yicha mahalla qo'mitalari bilan ishlash;
- Deviant xulqli o'smirlarni ijodiy faoliyatga jalb qilish bo'yicha voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyalari bilan hamkorlikda tadbirlar tashkil etish;

Umumta'lim maktablarida SOG'LOM MUHIT ni shakllantirish eng avvalo maktab rahbariyatining boshqaruv mahorati va kasbiy salohiyatiga bog'liq. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda rahbar atamasi mas'uliyatni his qiladigan, jamoani birlashtirib umumiy maqsad (ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish) sari yetaklab, javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan, yosh avlod manfaatlari hamda el-yurtni kelajagini o'ylab mehnat qiladigan kishiga nisbatan ishlatiladi. Rahbarlik yuqori darajadagi mas'uliyatlilikni, yuksak aql-farosat, ko'p kuch-g'ayrat, izlanish va topqirlikni, o'z ustida tinmay ishlashni talab qiladi. Rahbar eng avvalo mas'uliyatli, kompetentli (o'z kasbining mohir ustasi), tashkilotchi, adolatli va fidoyi bo'lishi zarur. Maktab rahbari sog'lom ijodiy muhit vositasida jamoa a'zolari orasida shunday munosabatlar tizimini shakllantirishi kerakki, bu muassasa oldiga qo'yilgan maqsadlarga eng yuqori darajada erishish imkonini bersin. Buning uchun rahbardan quyidagi malaka va xususiyatlarga ega bo'lish talab etiladi:

- * tashkilotchilik qobiliyati;
- * o'z bilimini muntazam oshirib borishi;
- * ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirishda shaxsiy namuna ko'rsata olishi (o'z mutaxassisligi bo'yicha namunaviy ochiq darslar tashkil etishi, dars tahlillariga kirishi, ilg'or tajribalarni joriy etishda yetakchilik qilishi);
- * yangi g'oya, yangi tashabbus, yangi texnologiyalarni joriy etilishini qo'llab-quvvatlashi;
- * o'qituvchi va o'quvchi psixologiyasidan xabardor bo'lishi (yosh xususiyatlari va temperamentlariga qarab samarali muloqotga kira olishishi);

- * faqat o'zining nuqtai-nazari va fikrini o'tkazmasdan, o'zgalarning ham fikrini inobatga olishi;
- * o'qituvchilarning bilim va malakalarini, ijodkorlik qobiliyatlarini qadrlash xususiyatini mavjud bo'lishi;
- * tadbirkor, ishbilarmon bo'lishi;
- * vaziyatni to'g'ri baholay olish;
- * mustaqil qaror qabul qila olish va mazkur qarorida javobgarlik hissi bo'lishi;
- * hamkorlariga, jamoa a'zolariga bergan va'dasini doim o'z vaqtida bajarish;
- * mag'rurlanib ketmaslik, jamoa o'rtasida kamtar bo'lish, o'ziga ortiqcha baho bermaslik;
- * o'zining ishtiroki zarur bo'lgan masalalarnigina hal qilishda qatnashishi;
- * faoliyatidagi har bir xato va kamchiliklarini sinchiklab tahlil qilib, kerakli saboq chiqara olish kabi xususiyatlar.

Shu bilan birgalikda rahbar kadrlardan samarali faoliyatning muhim vositasi sifatida har bir harakatga ijodkorlik bilan yondashib, hududdagi shart-sharoitlarni aniq hisobga olgan holda ish uslubini tanlash talab qilinadi. Jamoa ko'pchilikni tashkil etadi, shunday ekan ularning fikri, dunyoqarashi, ma'naviyati, xarakteri, ruhiyati ham turlichadir. Rahbar ularning turli-tuman ishlarini kuzatib turishi kerak bo'ladi. O'z muassasasi a'zolarining hatti-harakatlaridan voqif bo'lmaslik jamoaning bir necha tarafga bo'linishiga sabab bo'ladi. Demak, rahbarning mahorati o'z qo'l ostida faoliyat ko'rsatuvchilarga yaxshiroq ishlash istagini bera olishdan iboratdir. Rahbar ko'proq shaxsiy na'muna ko'rsatishi, ma'naviy rag'batlantirish, ishontirish, tushuntirish va tashviqot qilish yo'li bilan har bir xodimga va butun jamoaga ta'sir ko'rsatadi. Sog'lom muhitni rivojlantirishda insondagi ehtiyoj va qiziqishlari o'zgarganligini ham hisobga olmoq kerak. Agar yaqindagina mehnat faolligining asosiy sharti ish haqining miqdoridan, so'ngra esa qulay moddiy ish sharoitini ta'minlashdan iborat bo'lgan bo'lsa,

hozirda mehnatga moddiy rag'batlantirishning muhim roli saqlanib qolgan holda ma'naviy, ijtimoiy-psixologik faktorlarga tobora ko'proq ahamiyat berilmoqda. Hozir mutaxassis o'zining ish joyi sifatida ko'proq jamoasi ahil bo'lgan, mas'uliyatli va ijodkor o'qituvchi hurmat qilinadigan, u haqda g'amxo'rlik qilinadigan, o'zini erkin his etadigan, qulay psixologik vaziyat tarkib topgan ish joyini tanlamoqda va bor kuchini sarflab ishlamoqda.

Ta'lim muassasalarida sog'lom muhitni shakllantirish bevosita o'qituvchilarning vazifalarini sifatli bajarishlariga bog'liq. Shundan kelib chiqqan holda o'quvchilarning erishgan natijalari va yutuqlarining asosi – maktablarda dars jarayonining sifatli tashkil etilishi hisoblanadi. Darsning sifati esa maqsadga erishish uchun eng samarali usul va vositalar orqali sinfda sog'lom, do'stona muhitni yaratib, o'quvchilarga bilim berish hamda mustaqil faoliyat ko'rsatish kabi hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish orqali ta'minlanadi. Bu jarayon esa o'qituvchilardan quyidagi talablarga javob berishni talab etadi:

- o'z fanining ilmiy - amaliy nazariyasini va zamonaviy yutuqlarini bilish;
- o'quvchilarning mustaqil bilim olishlarini, ularda boshlang'ich tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida samarali usullarni qo'llay olishlari;
- ilg'or ish tajribalar, yangiliklarni o'qitish jarayoniga tadbiq qilish;
- o'quvchida mustaqil bilim olish, ijodkorlik va izlanishlarni rivojlantirish usullaridan foydalana olishi;
- dars jarayonida o'zaro hurmat, ishonch va o'zaro yordamni tashkil eta olish;
- dars va darsdan tashkari jarayonni ko'tarinki kayfiyatda tashkil eta olish;
- o'quvchilarni umumiy maqsadlarga intilishlarini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash.

Umumta'lim muassasalarida SOG'LOM MUHIT - SOG'LOM JAMOA ni shakllanishida psixologning vazifasi:

- O'quvchilar rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va turli ko'rinishdagi psixologik yordam berish;
- Turli yo'nalish va maqsadlarda psixologik tashxis o'tkazish;
- Bola ruhiyatidagi salbiy o'zgarishlarni aniqlash va ularni bartaraf etish;
- Turli yosh davrlarida o'quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, psixologik nuqsonlarni aniqlash va salbiy og'ishlarning oldini olish;
- Iqtidorli o'quvchilarni psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash;
- O'quvchilar, pedagogik jamoa, ota-onalar (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) ning psixologik va jinsiy tarbiya madaniyatini shakllantirish;
- Pedagogik jamoalarda sog'lom psixologik muhitni yaratish va qo'llab-quvvatlash;
- Yoshlar tarbiyasiga xavf solayotgan "ommaviy madaniyat" ning kirib kelishi holatlarining oldini olish.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ta'lim muassasalarida sog'lom muhitni shakllantirishga qaratilgan "SOG'LOM MUHIT - SOG'LOM JAMOA" deb nomlangan tavsiyalar, eng avvalo maktablarda amaldagi vaziyat qanday ekanligini aniqlash maqsadida o'z-o'zini baholash metodikasini joriy etish hamda shundan kelib chiqqan holda keyingi faoliyatlarini rejalashtirishga qaratilgan. Maktablarda o'z-o'zini baholash metodikasini o'quv yili davomida 2 marta (o'quv yilining birinchi yarim yillik yakuni va o'quv yili yakunida) amalga oshirish tavsiya etiladi. Mazkur tadbirlar ikkita bosqichdan iborat bo'lib, ularni amalga oshirishda hisobotbozlikka yo'l qo'yilmaydi, amalga oshirilgan ishlar hisoboti yozilmaydi va olinmaydi, ushbu vazifalarga sidqidildan va vijdonan yondashish tavsiya etiladi. Pedagogik jamoaning muomala madaniyati –maktabdagi sog'lom muhit ko'zgusi !

1-bosqich: Ta'lim muassasida sog'lom ijodiy muhitni shakllantirilganligini o'rganish bo'yicha so'rovnoma va uni umumlashtirish metodika

T/r	Ko'rsatkich va savollar	hech qa- chon	goh- gohida	ayrim hollarda	tez- tez	doimo
1.	Maktab rahbariyati va o'qituvchilar o'rtasida samimiylilik va ishonch mavjud	1	2	3	4	5
2.	O'qituvchi – o'quvchilar, o'qituvchi – ota-onalar o'rtasida samimiylilik va ishonch mavjud	1	2	3	4	5
3.	Ta'lim tarbiya jarayoni qatnashchilari tomonidan maqsadga erishish yo'lidagi mas'uliyat his qilinadi	1	2	3	4	5
4.	Maktab muammolari ochiq tarzda ota-onalar, o'qituvchilar va o'quvchilar orasida muhokama qilinadi	1	2	3	4	5
5.	Maktab rahbariyati, o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalar hamjihat (maktab manfaatlarining birgalikda himoya qilinishi)					
6.	Ma'naviy va moddiy rag'batlantirish adolatli va ochiq yo'lga qo'yilgan					

7.	O'g'il bolalar va qiz bolalar psixologiya-sini hisobga olgan holda ular bilan ishlash tizimli tashkil etiladi.					
8.	O'quvchilar tarbiyasida mahalla, jamoatchilik nufuzini oshirishga qaratilgan tadbirlar muntazam o'tkaziladi					
9.	Maktabda o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalar uchun psixologik xizmat yo'lga qo'yilgan					
10.	Maktabning psixologik muhiti yaxshi, hammani qoniqtiradi (o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalar maktabga jon dillari bilan keladilar).					

Maktabingizda sog'lom ijodiy muhit shakllantirilganmi ?

T/r	Ko'rsatkich va savollar	hech qachon	goh-gohida	Ayrim hollarda	tez-tez	doim o
1.	Maktab direktori o'z ishining ustasi (u ijodkor, maktabni yaxshi biladi, maktabning muammolari bilan tanish, psixolog, o'qituvchilarga ijodiy ishlashlari	1	2	3	4	5

	uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib beradi).					
2.	Sogʻlom va ijodiy muhitni shakllantirish uchun oʻquv yilida maktab direktori tomonidan maqsad va aniq rejalar tuziladi					
3.	Sogʻlom va ijodiy muhitni takomillashtirish oʻquv yilida belgilangan rejada aks etgan, har yarim yillikda ularning amaliyligi, samarasi muhokama qilib boriladi					
4.	Ijodkor oʻqituvchilar faoliyatini maktab rahbariyati tomonidan oʻrganilib, oʻquvchilar bilimiga uning ta'siri tahlil etiladi va bunday faoliyat ragʻbatlantiriladi					
5.	Metodist va hududiy MOI oʻqituvchilari bilan ijodiy hamkorlikning yoʻlga qoʻyilgan					
6.	Ta'lim jarayoni ishtirokchilari oʻrtasidagi oʻzaro ishonch va do'stona hamkorlikning mavjud (har bir oʻquvchi, oʻqituvchi,					

	maktab rahbariyatiga katta ishonch bildiriladi)					
7.	Maktabda tarbiyasi og'ir o'quvchilar yo'q, o'quvchilar o'zlarini nafaqat maktab hududida balki, jamoat joylarida o'zini tutishni biladi					
8.	Erishilgan ijodiy yutuqlar tizimli ravishda tahlil qilib boriladi (muvafaqqiyatlar, o'quv-tarbiya jarayoni natijalari, o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar jamoatchilik vakillari bilan birgalikda muhokama qilinadi).					
9.	O'quvchilar va ota-onalar maktab faoliyatida faol qatnashadilar, o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishda bevosita qatnashadilar					
10.	Ta'lim tarbiya jarayoni o'quvchilar shaxsiga yo'naltirilgan.					
11.	O'qituvchilarni hamkasblari bilan o'z yutuqlarini o'rtoqlashish tizimi yaratilgan, har bir o'qituvchining ijodiy ish rejasi mavjud va uni					

	bajarilishini pedagogik jamoada muhokama qilib boriladi.					
12.	O'qituvchilar, o'quvchilar va otalar tomonidan o'zlarining fikr-mulohazalarini erkin bayon etishlari uchun sharoit va muhit yaratilgan, har bir ta'lim-tarbiya jarayoni qatnashchilari fikrlari hurmat qilinadi.					

“Pedagogik jamoaning muomala madaniyati – maktabdagi sog‘lom muhit ko‘zgusi” yo‘nalishidagi 10 ta savol (maksimal 50 ball) va “Maktabda ijodiy muhitning shakllantirilganligi to‘g‘risida” gi 12 ta savol (maksimal 60 ball) bo‘yicha to‘plangan umumiy balning kesishgan joyidan maktabning qanday ahvolda ekanligi kelib chiqadi.

Pedagogik jamoaning muomala madaniyati – maktabdagi sogʻlom muhit koʻzgusi yoʻnalishi	60	Sogʻlom muhitga erishish uchun kurashayotgan maktab	Sogʻlom muhit mavjud boʻlgan rivojlanayotgan maktab
	55		
	50		
	45		
	40		
	35	Sogʻlom muhitni shakllantirishga shoshmayotgan maktab	
	30		
	25		
	20		

	15	Sog'lom muhit mavjud bo'lmagan, orqaga ketayotgan maktab						Adashib yurgan maktab				
	10											
	5											
	0	0	5	10	15	20	25	30	35	40	45	50
		Maktabda ijodiy sog'lom muhit shakllantirilganligi yo'nalishi										

- * hamkorlariga, jamoa a'zolariga bergan va'dasini doim o'z vaqtida bajarish;
- * mag'rurlanib ketmaslik, jamoa o'rtasida kamtar bo'lish, o'ziga ortiqcha baho bermaslik;
- * o'zining ishtiroki zarur bo'lgan masalalarnigina hal qilishda qatnashishi;
- * faoliyatidagi har bir xato va kamchiliklarini sinchiklab tahlil qilib, kerakli saboq chiqara olish kabi xususiyatlar.

Shu bilan birgalikda rahbar kadrlardan samarali faoliyatning muhim vositasi sifatida har bir harakatga ijodkorlik bilan yondashib, hududdagi shart-sharoitlarni aniq hisobga olgan holda ish uslubini tanlash talab qilinadi. Jamoa ko'pchilikni tashkil etadi, shunday ekan ularning fikri, dunyoqarashi, ma'naviyati, xarakteri, ruhiyati ham turlichadir. Rahbar ularning turli-tuman ishlarini kuzatib turishi kerak bo'ladi. O'z muassasasi a'zolarining hatti-harakatlaridan voqif bo'lmalik jamoaning bir necha tarafga bo'linishiga sabab bo'ladi. Demak, rahbarning mahorati o'z qo'l ostida faoliyat ko'rsatuvchilarga yaxshiroq ishlash istagini bera olishdan iboratdir. Rahbar ko'proq shaxsiy na'muna ko'rsatishi, ma'naviy rag'batlantirish, ishontirish, tushuntirish va

tashviqot qilish yo‘li bilan har bir xodimga va butun jamoaga ta’sir ko‘rsatadi. Sog‘lom muhitni rivojlantirishda insondagi ehtiyoj va qiziqishlari o‘zgarganligini ham hisobga olmoq kerak. Agar yaqindagina mehnat faolligining asosiy sharti ish haqining miqdoridan, so‘ngra esa qulay moddiy ish sharoitini ta'minlashdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, hozirda mehnatga moddiy rag‘batlantirishning muhim roli saqlanib qolgan holda ma'naviy, ijtimoiy-psixologik faktorlarga tobora ko‘proq ahamiyat berilmoqda. Hozir mutaxassis o‘zining ish joyi sifatida ko‘proq jamoasi ahil bo‘lgan, mas’uliyatli va ijodkor o‘qituvchi hurmat qilinadigan, u haqda g‘amxo‘rlik qilinadigan, o‘zini erkin his etadigan, qulay psixologik vaziyat tarkib topgan ish joyini tanlamoqda va bor kuchini sarflab ishlamoqda.

Ta'lim muassasalarida sog‘lom muhitni shakllantirish bevosita o‘qituvchilarning vazifalarini sifatli bajarishlariga bog‘liq. Shundan kelib chiqqan holda o‘quvchilarning erishgan natijalari va yutuqlarining asosi – maktablarda dars jarayonining sifatli tashkil etilishi hisoblanadi. Darsning sifati esa maqsadga erishish uchun eng samarali usul va vositalar orqali sinfda sog‘lom, do‘stona muhitni yaratib, o‘quvchilarga bilim berish hamda mustaqil faoliyat ko‘rsatish kabi hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali ta'minlanadi. Bu jarayon esa o‘qituvchilardan quyidagi talablarga javob berishni talab etadi:

- o‘z fanining ilmiy - amaliy nazariyasini va zamonaviy yutuqlarini bilish;
- o‘quvchilarning mustaqil bilim olishlarini, ularda boshlang‘ich tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida samarali usullarni qo‘llay olishlari;
- ilg‘or ish tajribalar, yangiliklarni o‘qitish jarayoniga tadbiq qilish;
- o‘quvchida mustaqil bilim olish, ijodkorlik va izlanishlarni rivojlantirish usullaridan foydalana olishi;
- dars jarayonida o‘zaro hurmat, ishonch va o‘zaro yordamni tashkil eta olish;
- dars va darsdan tashkari jarayonni ko‘tarinki kayfiyatda tashkil eta olish;

- o‘quvchilarni umumiy maqsadlarga intilishlarini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash.

Umumta'lim muassasalarida SOG‘LOM MUHIT - SOG‘LOM JAMOA ni shakllanishida Psixologning vazifasi:

- ☐ O‘quvchilar rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va turli ko‘rinishdagi psixologik yordam berish;
- ☐ Turli yo‘nalish va maqsadlarda psixologik tashxis o‘tkazish;
- ☐ Bola ruhiyatidagi salbiy o‘zgarishlarni aniqlash va ularni bartaraf etish;
- ☐ Turli yosh davrlarida o‘quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, psixologik nuqsonlarni aniqlash va salbiy og‘ishlarning oldini olish;
- ☐ Iqtidorli o‘quvchilarni psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash;
- ☐ O‘quvchilar, pedagogik jamoa, ota-onalarning (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar) psixologik va jinsiy tarbiya madaniyatini shakllantirish;
- ☐ Pedagogik jamoalarda sog‘lom psixologik muhitni yaratish va qo‘llab-quvvatlash;
- ☐ Yoshlar tarbiyasiga xavf solayotgan “ommaviy madaniyat” ning kirib kelishi holatlarining oldini olish.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ta'lim muassasalarida sog‘lom muhitni shakllantirishga qaratilgan “SOG‘LOM MUHIT - SOG‘LOM JAMOA” deb nomlangan tavsiyalar, eng avvalo maktablarda amaldagi vaziyat qanday ekanligini aniqlash maqsadida o‘z-o‘zini baholash metodikasini joriy etish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Olga Olegovna Andronnikova. (2020). “Psychological Service in Higher Education System: Problems and Urgent Tasks.” Bulletin of Psychological Practice in Education, Vol.17, No.1, pp:85-94.
2. 2024-yil 21- iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-231-son qarori
3. Nadia Taggart. (2011). “The educational and psychological support of educators to include learners from childhood.” South African Journal of Childhood Education, Vol.1, No.2, pp:1-12.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son
5. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-dekabrdagi 792-son, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 577-son qarorlari
6. O‘zbekiston Respublika tashxis markazining 2022-yil 26-avgust 40-sonli buyrug‘i